



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA  
AGENTLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA  
BAJARILGAN QURILISH ISHLARI  
ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2023- YIL JANVAR-AVGUST

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- sentabr holatiga O'zbekiston Respublikasida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soni 34 368 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 7 043 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarining 20,5 % i Toshkent shahrida joylashgan.

## 2023- yil 1-sentabr holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda




Toshkent sh.	<b>7 043</b>
Farg'ona	<b>2 915</b>
Toshkent	<b>2 866</b>
Qashqadaryo	<b>2 651</b>
Buxoro	<b>2 626</b>
Samarqand	<b>2 478</b>
Surxondaryo	<b>2 410</b>
Andijon	<b>2 092</b>
Qoraqalpog'iston R.	<b>1 866</b>
Xorazm	<b>1 748</b>
Namangan	<b>1 638</b>
Jizzax	<b>1 547</b>
Navoiy	<b>1 422</b>
Sirdaryo	<b>1 066</b>



Shuningdek, Toshkent shahrida 7 043 ta (respublika bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 20,5 %), Farg'ona viloyatida – 2 915 ta (8,5 %) qurilish korxonalari mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-avgust uchun)

2023- yilning yanvar-avgust oylarida, O'zbekiston Respublikasida jami 93 268,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,9 % ni tashkil etdi.




*Ma'lumot uchun:* qurilish faoliyati bu – o'z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



# 2023- yilning yanvar-avgust oylarida O‘zbekiston Respublikasida qurilish ishlari

**Hududlarning hajmi va 2022- yilning mos davriga nisbati, %da**




2023- yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida xususan, Toshkent shahri (22 588,0 mlrd. so‘m), Toshkent viloyati (8 299,3 mlrd. so‘m) va Samarqand viloyatida (6 160,1 mlrd. so‘m) qurilish ishlaringin yuqori hajmi qayd etildi.

## 2023- yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-avgust oylarida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlaringin iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 68,4 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,5 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 10,1 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 134,9 % ni tashkil etdi.



**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

## **2023- yilning yanvar-avgust oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi**

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning 69,6 % i yoki 64 938,5 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**19 672,5**  
mlrd. so‘m

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 19 672,5 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 30,3 % ni tashkil etdi.

**30,3 %**

**31 434,5**  
mlrd. so‘m

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 31 434,5 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 48,4 % ni tashkil etdi.

**48,4 %**

**13 831,5**  
mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 13 831,5 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 21,3 % ni tashkil etdi.

**21,3 %**

### **Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi**

**31 086,1**  
mlrd. so‘m



**67,5 %**

**72,1 %**



**41 328,5**  
mlrd. so‘m

**48 292,3**  
mlrd. so‘m



**72,2 %**

**71,8 %**



**58 427,7**  
mlrd. so‘m


**64 938,5**  
mlrd. so‘m



**69,6 %**

## 2023- yilning yanvar-avgust oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi


2023- yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Toshkent shahri (12 935,1 mlrd. so'm), Toshkent viloyati (4 862,5 mlrd. so'm), Farg'ona viloyati (4 243,8 mlrd. so'm) va Buxoro viloyatida (4 163,9 mlrd. so'm) qayd etildi.



# 2023- yilning yanvar-avgust oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

## Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – **63 843,9 mlrd. so'm**



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, “O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq **“Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi”** ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 26,3 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga ko'payidi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,6 % punktga kamayib, 48,3 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,3 % punktga ko'payib, 25,4 % ni tashkil etdi.

# 2023- yilning yanvar-avgust oylarida bino va inshootlar qurilishi

## Hududlarning hajmi, mlrd. so‘mda

*Ma’lumot uchun:* Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlaringning eng yuqori ulushi Jizzax viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlaringning 83,0 % i), Surxondaryo viloyati (76,1 %) va Navoiy viloyati (75,7 %) da kuzatildi.



Jizzax viloyati  
83,0 %




Surxondaryo viloyati  
76,1 %



Navoiy viloyati  
75,7 %

**2023- yilning yanvar-avgust oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari  
Korxonalar turlari bo'yicha**

**Fuqarolik obyektlarini qurish, mlrd. so'm**




**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 23,6 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 76,3 % (3,4 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi va o'zgarishsiz qoldi.

# 2023- yilning yanvar-avgust oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

## Hududlarning hajmi, mlrd. so‘mda




*Ma‘lumot uchun:* Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlaring 70,7 % i), Sirdaryo viloyati (37,4 %) va Xorazm viloyati (27,7 %)da kuzatildi.



**70,7 %**  
Samarqand viloyati



**37,4 %**  
Sirdaryo viloyati



**27,7 %**  
Xorazm viloyati

# **2023- yilning yanvar-avgust oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari Korxonalar turlari bo'yicha**

## **Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, mlrd. so'm**

**2 052,3**

mlrd. so'm

**Yirik qurilish tashkilotlari**

2022- yilning mos davriga nisbatan

**96,8 %**

**7 359,0**

mlrd. so'm

**Kichik korxona va mikrofirmalar**

2022- yilning mos davriga nisbatan

**151,5 %**

**21,8 %**

**78,2 %**

**Jamiga nisbatan ulushi**

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 8,6 % punktga kamaydi va 21,8 % ni tashkil etdi.

Qolgan 78,2 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 8,6 % punktga ko'paydi.

# 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

## Hududlarning hajmi, m/lrd. so‘mda

*Ma’lumot uchun:*  
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Toshkent shahri (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 18,5 % i), Namangan viloyati (18,4 %) va Toshkent viloyatida (14,2 %) kuzatildi.



**18,5 %**  
Toshkent sh.




**18,4 %**  
Namangan viloyati



**14,2 %**  
Toshkent viloyati

## 2023- yilning yanvar-avgust oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlaring asosiy ko'rsatkichlari

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mld. so'mda*



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

### Jami hajmga nisbatan ulushi



2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**101,5 %**

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**108,6 %**

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**103,9 %**

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi

26,6 %

2022- y.

25,3 %

2023- y.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 23 592,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 101,5 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,3 % ga kamayib, 25,3 % ni tashkil etdi.

**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. so‘mda

	<b>246,5</b>
<b>Qoraqalpog‘iston Resp.</b>	<b>194,3</b>
<b>Andijon</b>	<b>818,9</b>
<b>Buxoro</b>	<b>125,0</b>
<b>Jizzax</b>	<b>1 356,8</b>
<b>Qashqadaryo</b>	<b>790,0</b>
<b>Navoiy</b>	<b>328,2</b>
<b>Namangan</b>	<b>1 010,4</b>
<b>Samarqand</b>	<b>418,8</b>
<b>Surxondaryo</b>	<b>387,2</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>1 744,7</b>
<b>Toshkent</b>	<b>1 238,1</b>
<b>Farg‘ona</b>	<b>363,3</b>
<b>Xorazm</b>	<b>5 715,5</b>
<b>Toshkent sh.</b>	

## Jamiga nisbatan ulushi



Toshkent sh.



Qashqadaryo viloyati



Toshkent viloyati

*Ma’lumot uchun:* yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Toshkent shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 25,3 % i), Qashqadaryo viloyatida (24,7 % ) va Toshkent viloyatida (21,0 %) qayd etildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Kichik korxona va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi

56,4 %

2022- y.

57,3 %


2023- y.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 57,3 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 108,6 % ni tashkil etgan holda 53 470,4 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




# 2023- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

## Hududlarning hajmi, mlrd. so‘m



## Jamiga nisbatan ulushi



Toshkent shahri



Samarqand viloyati



Toshkent viloyati

*Ma‘lumot uchun:* ko‘rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (14 934,9 mlrd. so‘m), Samarqand viloyatida (4 701,3 mlrd. so‘m) va Toshkent viloyatiga (4 476,6 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

## 2023- yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlaringin umumiy hajmida norasmiy sektor

### Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi

17,0 %

2022- y.

17,4 %


2023-y.

Norasmiy sektorda qurilish ishlaringin ulushi 17,4 % ni yoki 16 205,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni tashkil etdi. Shundan 11 849,2 mlrd. so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 1 982,3 mlrd. so'mni va 89,3 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 2 374,0 mlrd. so'mni va 106,8 % ni tashkil etdi.



# 2023- yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlaring umumi hajmidagi norasmiy sektor

## Hududlarning hajmi, mlrd. so‘mda



**2 078,0** mlrd. so‘m  
Toshkent viloyati



**1 937,6** mlrd. so‘m  
Toshkent shahri



**1 779,1** mlrd. so‘m  
Buxoro viloyati

*Ma'lumot uchun:* ko‘rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng katta hajmi Toshkent viloyatida (2 078,0 mlrd. so‘m), Toshkent shahrida (1 937,6 mlrd. so‘m) va Buxoro viloyatida (1 779,1 mlrd. so‘m ) qayd etildi.

# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

## Yanvar-avgust oylaridagi hajm, *mldr. so'mda*

2019-y.



2 394,4



43 672,0

2020-y.



2 542,2

2021-y.



3 394,5



63 455,8

2022-y.



2 286,7



79 055,8

2023-y.



2 743,0



90 525,8

**Davlat mulkchiligi**

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 2 743,0 mldr. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 90 525,8 mldr. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda 2,9 % va 97,1 % ni tashkil etdi.



***Ma'lumot uchun:*** nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiylajmining 99,7 % i), Surxondaryo viloyatida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiylajmining 99,5 % i) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (ushbu hududagi umumiylajmining 98,2 % i) qayd etildi.

## **Qurilish ishlari USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR**

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektni qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarini amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlariga** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi**  
**Tel. 71 203-80-00 (1161)**